



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

HARBIY XIZMATCHILARDA AGRESSIVLIK YUZAGA KELISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Rejametova Iroda Ikramsheykovna

*"Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash" kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent Jamoat xavfsizligi universiteti*

Annotatsiya: *Jahon psixologiyasida harbiy xizmatchilar orasida agressiv xulq-atvor muammosini o'rganish mustaqil tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib, unga oid ilmiy izlanishlar soni izchil ortib bormoqda. Tadqiqotlarda agressivlikning biologik, psixologik, ijtimoiy hamda ijtimoiy-psixologik determinantlari, shuningdek agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lish shakllari va reprezentatsiyasi (ko'rinishi) bilan bog'liq xususiyatlar chuqur tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *agressivlik, agressiya, harbiy xizmatchi, xulq-atvor, dushmanlik instinkti, frustratsiya.*

Mazkur yo'nalishda harbiy xizmatchilarda agressiv xulq-atvorni oldini olish, uning yuzaga kelish shart-sharoitlari, psixologik mexanizmlarini aniqlash, shuningdek tuzatish va profilaktik dasturlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda harbiy muhitda uchraydigan xulqdagi og'ishlar, agressivlik, emotsional beqarorlik, hissiyotlarni boshqara olmaslik, konfliktga moyillik kabi holatlar dolzarb ijtimoiy-psixologik muammo sifatida qaralmoqda. Insonning agressiv xulq-atvori hodisasini tahlil qilish, uning sabablarini anglashga qaratilgan dastlabki urinishlar ilmfangacha bo'lgan davrlarda diniy va falsafiy qarashlar doirasida amalga oshirilgan. Agressiyakorlik sabablarini turli pozitsiyalardan izohlovchi falsafiy izlanishlarda bu hodisa ko'proq insonning ijobiy mohiyatiga zid bo'lgan xatti-harakatlar sifatida baholangan yondashuv ustunlik qilgan. A.A.Rean mazkur tarixiy yondashuvni "axloqiy-gumanistik" konsepsiya sifatida ta'riflaydi.

XIX asrda tabiiy va gumanitar fanlarning rivojlanishi agressiya va uning sabablarini tushunishda muhim burilish yasadi. Jumladan, Ch.Darvin o'z turining vakillarini yo'q qilish yoki raqobat asosidagi kurashni (agressiya elementlari) tabiiy tanlanish hamda tirik mavjudotlarning o'zini saqlab qolish mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilgan. A.A.Reanning fikricha, aynan ushbu yondashuv agressiya muammosiga nisbatan yangi nuqtai nazarining paydo bo'lishiga olib kelgan bo'lib, unga ko'ra agressiya tirik mavjudotning omon qolishi, moslashuvi va resurslar uchun kurashida xizmat qiluvchi biologik maqsadga muvofiq xulq-atvor shakli sifatida ham izohlanadi.

Psixologiya doirasida agressiya hodisasini ilmiy o'rganish XIX asr oxiridan boshlangan. Dastlab agressiyaning tabiati haqidagi psixologik qarashlar soddalashtirilgan bo'lib, ular yetarli empirik asosga ega emas edi. Shu sababli ayrim nazariyalarda agressiya turli instinktlar bilan izohlangan: masalan, U.Jeyms "dushmanlik instinkti" haqida fikr bildirgan bo'lsa, U.Makkdugal agressiyani "jangovarlik instinkti" sifatida talqin qilgan.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

XX asr boshlarida agressiya muammosini izohlashda ikki asosiy yo'nalish psixoanaliz va bixeviorizm yondashuvlari shakllandi. Agressiya kontseptsiyasiga psixoanalitik yondashuvda u shaxsning tug'ma xususiyati sifatida, Z.Freyd tomonidan "tanatos" konseptsiyasi orqali tushuntirilgan. Bixevioristik yondashuv doirasida esa agressiya ko'pincha noqulay tashqi stimulga javob reaksiyasi sifatida baholanib, D.Dollard va N.Miller tomonidan "frustratsiya-agressiya" modeli asosida ilmiy asoslangan.

1960-yillardan boshlab agressiyani o'rganishda sezilarli ilmiy yutuqlarga erishildi. Bunga psixologiya bilan bir qatorda sotsiologiya, biologiya, ekologiya kabi fanlararo integratsiya, shuningdek, ilmiy metodologiya va eksperimental texnologiyalarning rivojlanishi turtki bo'ldi. Aynan shu davrda agressiya bo'yicha empirik bilimlar jamlanib, uning asosiy nazariy tamoyillari shakllantirildi.

Ushbu bosqichda A.Bass, L.Berkovits, A.Bandura kabi mualliflarning tadqiqotlari aggressiv xulq-atvorni tushuntirishda muhim metodologik tayanch bo'lib xizmat qildi. Keyinchalik zo'ravonlik va agressiya muammolariga ixtisoslashgan ilmiy nashrlar "Child Abuse and Neglect", "Aggressive Behavior", "Journal of Interpersonal Violence" kabi jurnallar shakllandi. Bu holat bir tomondan G'arb jamiyatlarida, xususan AQShda zo'ravonlik jinoyatlarining tarqalishi, ikkinchi tomondan esa sovuq urush davridagi ijtimoiy-siyosiy muhitning agressiya muammosiga bo'lgan ilmiy qiziqishni kuchaytirgani bilan izohlanadi.

Agressiyaga oid ko'plab tadqiqotlarning uslubiy asosi istisnalar bo'lsa-da, neobixeviorizm bo'lib kelgan va shundayligicha qolmoqda. Shu bilan birga, etolog K.Lorens Freyd nazariyasiga yaqin bo'lgan tug'ma aggressivlik instinkti haqidagi g'oyani rivojlantirdi. E.Fromm agressiyani neofreydizm nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Kognitiv yondashuvlar doirasida esa agressiyani idrok etish, interpretatsiya qilish, baholash mexanizmlari bilan bog'liq tadqiqotlar olib borilgan. Rus psixologiyasida 1980-yillarning oxirigacha agressiya hodisasi G'arbdagi kabi miqyosda o'rganilmagan. Aggressiv xulq-atvor muammosining ayrim jihatlari, asosan psixofiziologik, tibbiy hamda kriminologik doirada tahlil etilgan. Freydning aggressivlik nazariyalarini tanqid qilgan ayrim nashrlar mavjud bo'lsa-da, ko'plab ilmiy manbalarda "agressiya" va "agressiv xulq-atvor" atamaları umuman ishlatilmagan. Bunga marksistik metodologiyaning ustuvorligi sabab bo'lib, unda har qanday xatti-harakatlar, shu jumladan aggressiv xatti-harakatlar ham avvalo ijtimoiy omillar bilan izohlangan. Shuning uchun aggressiv shaxs va jinoyatchi "ijtimoiy muhitning mahsuli" sifatida baholanib, agressiya "ijtimoiy hodisa" sifatida talqin qilingan.

1980-yillarning oxiri va 1990-yillar boshida Rossiyada jamiyatdagi keskin o'zgarishlar zo'ravonlik va ijtimoiy nizolarni kuchaytirib, agressiyani chuqurroq o'rganish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada ushbu hodisa sabablari, namoyon bo'lishi va oldini olishga bag'ishlangan maqolalar paydo bo'ldi hamda tadqiqotlar bolalar va yoshlar aggressivligi muammosiga ko'proq yo'naltirildi. Shuningdek, "pedagogik agressiya", aggressiv subkulturalar, armiyadagi agressiya, kompyuter o'yinlarining agressiyaga ta'siri kabi yangi yo'nalishlar shakllandi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

Adabiyotlar tahlili agressiya va agressivlik tushunchalarining ta'rifi hozirgacha yakdil emasligini ko'rsatadi. T.G.Rumyantseva ta'kidlashicha, ushbu kontseptsiya ta'rifidagi qiyinchiliklar agressiyani turli fanlar o'z tadqiqot doirasiga mos ravishda talqin qilishi bilan bog'liq. Masalan, biologiyada agressiyaning maqsadi va funksiyasi (moslashuvchan yoki moslashuvchan emasligi) tahlil qilinsa, neyrofiziologiya agressiya bilan bog'liq asab mexanizmlarini o'rganadi. Psixiatriyada ruhiy kasalliklar fonidagi agressiv namoyonlar, sotsiologiyada esa agressiyaning ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi asosiy o'rinni egallaydi.

Psixologiya an'anaviy ravishda agressiya bo'yicha integratsiyalashgan markaz rolini bajargan bo'lsa-da, agressiyani ta'riflash va tushunish bo'yicha yagona konseptual yondashuv hali to'liq shakllanmagan. A.Bass agressiyani boshqa shaxsga nisbatan tahdid yoki zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakat sifatida talqin qiladi. L.Berkovits esa agressiyani tasniflashda "zarb yetkazish" bilan bir qatorda "kamsitish, haqorat qilish" mezonini ham muhim deb hisoblaydi.

Agressiya hodisasining eng umumlashtirilgan ta'rifi R.Beron va D.Richardson tomonidan berilgan bo'lib, unga ko'ra agressiya — bu boshqa tirik mavjudotni u buni istamagan holda haqoratlash yoki unga zarar yetkazishga qaratilgan har qanday xatti-harakatdir. Ushbu yondashuvda agressiv harakatning o'ziga xos belgisi sifatida agressiya obyektiga maksimal zarar yetkazishga intilish hamda agressorning o'zi minimal zarar ko'rishga urinishi ta'kidlanadi.

O.B.Bovt mazkur ta'rifga qo'shimcha tarzda agressiya mezonida agressiv niyatning mavjudligi yoki yo'qligini ajratish zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuv tasodifiy zarar yetkazish holatlarini agressiyadan farqlashga, shuningdek zaruriy og'riqli ta'sir (masalan, xizmat majburiyatini bajarish sharoitida) bilan bog'liq vaziyatlarni noto'g'ri agressiya sifatida baholamaslikka imkon beradi.

R.Beron va D.Richardson ta'rifidan kelib chiqadigan asosiy qoidalar quyidagilardan iborat:

1. agressiya maqsadli va qasddan zarar yetkazishdir;
2. agressiya obyektini tirik mavjudot bo'lishi kerak;
3. jabrlanuvchi bunday muomaladan qochishga intiladi.

Biroq G.A.Gaydukevich ushbu ta'rifning muhim kamchiliklaridan biri sifatida unda "norma" tushunchasining yo'qligini ko'rsatadi. Chunki jamiyat tomonidan ruxsat etilgan zo'ravonlik shakllari (masalan, qonuniy jazo) agressiya sifatida noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Muallif agressiyani ta'riflashda ijtimoiy baholash omilini ham hisobga olish lozimligini taklif etadi va agressiyani jamiyat normalari va birgalikda yashash qoidalariga zid bo'lgan motivatsiyalangan buzg'unchi xatti-harakat sifatida ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Agressiya tushunchasi agressivlik tushunchasidan farqlanishi lozim. Agressiya muayyan vaziyatda amalga oshirilgan harakat yoki xulq-atvor bo'lsa, agressivlik shaxsiy xususiyat bo'lib, agressiv harakatlarga tayyorlikni ifodalaydi. Mazkur farq shundan iboratki, agressiya har doim ham agressivlik darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lavermaydi va shaxs



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

agressiv bo'lsa ham, bu har doim agressiv xatti-harakatga olib kelmasligi mumkin. Agressivlikni faqat biologik (tug'ma yoki instinktiv) xususiyat sifatida talqin qiluvchi yondashuvlar bugungi kunda ilmiy jihatdan yetarli asosga ega emas. Agressiv xulqning yuzaga kelishi ko'pincha shaxsiy hamda vaziyat omillarining murakkab o'zaro ta'siri natijasidir. Agressivlikning orttirilgan xarakteri ko'plab mualliflar tomonidan ta'kidlanib, uning shakllanishida ijtimoiy shartlanganlik omili muhim ekanligi ko'rsatiladi.

Agressivlik darajasi sotsializatsiya jarayonida o'rganish, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlarga yo'naltirilganlik bilan belgilanadi. Ayniqsa, agressiv xatti-harakat uchun jazo va ijtimoiy javobgarlik normalari muhim reguliyator vazifasini bajaradi. Agressivlik normasi tushunchasi kamida ikki nuqtai nazardan tahlil qilinadi: birinchidan, agressivlikning o'rtacha qabul qilinadigan darajasi sifatida; ikkinchidan, jamiyatda qabul qilingan xatti-harakat me'yorlari sifatida.

ADABIYOTLAR:

1. Гайдукевич Г. А. Проявления агрессивности у курсантов высших военных учебных заведений на разных этапах подготовки [Текст]: дис... канд. психол. наук / Г. А. Гайдукевич. – М., 2000. – 174 с.
2. Бовть О. Б. Агрессивные реакции и пути их коррекции в младших школьников [Текст]: дис ... канд. психол. наук / О. Б. Бовть. – М., 2000. – 265 с
3. Дроздов А. Ю. Проблемы агрессивного поведения личности [Текст]: учебное пособие / А. Ю. Дроздов, Н. А. Скок. – Чернигов: ЧГПУ, 2000. – 156 с.
4. Галян А. И. Агрессивность как личностный фактор деятельности учителя [Текст] / А. И. Галян, И. М. Галян // Психология: Сб. науч. работ. – К.: НПУ, 2000. – Вып. 9. – Часть 2. – С. 222-227.